



LATIFALAR MATNIDA PAREMIK BIRLIKLARNING QO‘LLANILISHI

Husaynova MahliyoXon Ma‘ruffjon qizi

FarDU 1-bosqich tayanch doktoranti, TATU Farg‘ona filiali o‘qituvchisi

mahliyoXonhusaynova@gmail.com

+998978775566ORCID: 0009-0004-4888-7103

Annotatsiya Ushbu maqolada paremik birliklar va latifa tushunchasi izohlanadi. Bunda latifalar matnida uchrovchi paremik birliklarning ahamiyatini ko‘rsatish hamda kulgini yuzaga keltirishdagi iboralarni misollar orqali yoritish maqsad qilib olingan. Shuningdek, paremik birliklarni o‘rganish orqali latifalar matnining leksik-stilistik xususiyatlari haqida ham fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlar: paremeologiya, paremik birlik, latifa, leksik birlik, ibora, pressupozitsiya.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПАРЕМИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ТЕКСТАХ АНЕКДОТА

Аннотация В этой статье объясняется понятие паремических единиц и анекдот. Целью этого является показать значение паремических единиц, встречающихся в тексте анекдотов, и осветить на примерах выражения, вызывающие смех. Также лексико-стилистические особенности текста анекдотов выявляются путем изучения паремических единиц.

Ключевые слова: паремология, паремическая единица, анекдот, лексическая единица, словосочетание, пресуппозиция

THE USE OF PAREMIC UNITS IN THE TEXT OF JOKES

Annotation This article explains the concept of paremic units and anecdote. The purpose of this is to show the importance of paremic units found in the text of anecdotes and to illuminate expressions that cause laughter through examples. Also, the lexical-stylistic features of the text of anecdotes are given by studying paremic units.

Key words: paremology, paremic unit, anecdote, lexical unit, phrase, presupposition.

KIRISH

Lingvistika sohasi ham boshqa barcha sohalar kabi doimiy ravishda o‘sib, rivojlanib bormoqda. Buning natijasi ularoq yangicha qarash va yondashuvlar, shu bilan birgalikda yangi sohalarning paydo bo‘lishi tabiiy holdir. Ba’zi tushunchalar adabiyot va tilshunoslik o‘rtasida o‘zaro aloqadorlikda shakllanib boradi. Bularning sirasiga stilistika, lingvopoetika,

lingvopragmatika kabi sohalarni misol sifatida keltirishimiz mumkin. Biz latifalar matnida kulgini yuzaga chiqishida sabab bo‘luvchi bir nechta omillarni, jumladan, paremik birliklarning qo‘llanilishiga oid matnlar haqida fikr yuritamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILIVA METODLAR

Latifa janrining vujudga kelishi va uning xususiyatlari haqida folklorshunos olimlar tomonidan ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Olimlar mazkur janrning paydo bo‘lish jarayonini uzoq o‘tmishga olib borib taqashadi. B.Suvanqulov latifa elementlarining “Avesto”da ham uchrashini ta’kidlab o‘tgan.[1] I.Braginskiy esa ayrim qadimgi so‘g‘d hikoyatlari (“Savdogar va marjon teshuvchi xizmatkor hikoyati”) [2] latifa janriga uyg‘un ekanligini ta’kidlaydi. Insoniyat tarixidagi ilk latifalar to‘plami sifatida qadimgi yunon tilida ommalashgan “Philogelos” – (“Kulgi shinavandalariga”) to‘plami e’tirof etiladi. U eramizning IV asrida yaratilgan deb taxmin qilinadi.[3] Latifa so‘zi arab tilidan olinganda mutoyiba, hazil degan ma’nolarni anglatadi. Latifa xalq hajviyoti janrlaridan, tanqidiy mazmundagi qisqa yumoristik hikoya hisoblanadi.

Paremiologiya ([yunoncha](#): paroimia — hikmatli so‘z, zarbulmasal) 1) ma’lum bir tildagi avloddan avlodga og‘zaki shaklda ko‘chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo‘lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralarni — paremalarni o‘rganadigan fan sohasi; 2) muayyan tilda mavjud bo‘lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralar — paremalar tizimi. [4] Demak, maqol, matal, hikmatli so‘z hamda iboralar paremik birliklar sifatida qaraladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Xalq latifalari shaklan uncha katta bo‘lmagan, yangi mikro matnlardan tashkil topadi. Odatda, hech qanday emosional-ekspressivlik bo‘yog‘iga ega bo‘lmagan til birliklari latifalar matnida o‘zgacha mazmun kasb etadi va kulgili vaziyatning vujudga kelishi uchun muhim lingvostilistik vositaga aylanadi. [5] Shuningdek, latifalar matnida maqol, matal va iboralarning ishtiroki orqali kulgili vaziyatlar yuzaga keladi. O‘zbek latifalarida Nasriddin afandi bosh qahramon sifatida o‘ta hozirjavob, zukko, dono va tadbirkor inson sifatida gavdalanadi. Chunki aqlli, mutafakkir Nasriddin afandi qiyofasida butun xalqning, millatning so‘zga chechanligi, zakiy, ya’ni nozik fikr yuritish fazilati o‘z ifodasini topgan. Har bir latifa matnida uni o‘ylab topgan shaxs aqli, vaziyatni aniqlash kayfiyati va zakovati namoyon bo‘ladi. [6]

Bunga yanada aniqlik kiritish uchun Afandi obrazi bilan bog‘liq holda yaratilgan bir nechta misollarni keltiramiz:

Qani, yalab ko‘ring

Afandining onasi bir kuni bir joyga keta turib:

— *Men kelguncha hovlini yaxshilab supurib,yog‘ tushsa yalaguday qilib qo‘ygin, deb tayinladi.*

Afandi hovlini onasi aytganday qilib yaxshilab supurib , oshxonada turgan bir xumchadagi yog‘ni olib hovlining hamma yeriga surtib chiqdi. Bir vaqt onasi qaytib kelsa, hovlining hamma yeri yiltillab turibdi. Onasi afandini chaqirib:

— Nimaga hovlining hamma yeriga yog‘ surtilgan? – deb so‘radi.

Shunda afandi:

— O‘zingiz **yog‘ tushsa yalagudek qilib qo‘ygin** deb tayinlagan edingiz-ku.

Ana endi ko‘ring, qani yalab bo‘larmikan - dedi.

Barchamizga ma‘lumki, afandi ishtirokidagi latifalarda afandi obrazi nihoyatda hozirjavob, so‘zga chechan, ayrim latifalarda esa sodda, ishonuvchan inson sifatida gavdalanadi. Mazkur latifada hovlini yaxshilab tozalash kerakligi mazmunida aytilgan iborani o‘z ma‘nosida tushungan afandining qilgan hatti-harakatlari kulgili vaziyat yaratilishiga sabab bo‘lgan.

Er-xotin “muhabbati”

Afandi uzoq safardan qaytdi, xotini yugurib kelib uning bo‘ynidan quchoqlab ko‘rishdi.

Afandi undan so‘radi:

— *Meni sog‘indingmi?*

— *Asti qo‘ying, — dedi xotini. Eshikdan biror erkakning qorasi ko‘rinsa, sizmi ekan, deb yuragim yorulguday bo‘ladi. Siz-chi, sog‘inmadingizmi?*

— *Men ham seni shunday sog‘inib qolganman, — deb javob bera boshladi Afandi, — safarimda biror xotin ko‘rinsa, semisan deb **lablarimga uchuq toshib ketdi.***

Yuqorida keltirilgan latifada *qorasi ko‘rinmoq, yuragi yorilguday bo‘lmoq, labiga uchuq toshimoq* kabi bir nechta iboralar qo‘llanilgan bo‘lib, “muhabbat” aynan labiga uchuq toshimoq ya‘ni qo‘rqmoq ma‘nosini anglatuvchi pressupozitsiya (Presuppozitsiya til birligining nutqiy vaziyat hamda nutq egalarining til ko‘nikmalari bilan bog‘liq tarzda yuzaga chiquvchi pragmatik xususiyati bo‘lib, mohiyatan gap qurilishi asosida yotuvchi yashirin hukmning tashqi ishoraga asoslanuvchi ko‘rinishini anglatadi.[7]) orqali ochib berilganligi natijasida kulgili vaziyat yuzaga kelganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Ishi ko‘p odam

Afandining xotini kasal bo‘lgan edi, Afandi kasalning boshiga o‘tirib yig‘lay boshladi.

Shu vaqtda kasalning o‘rtoqlaridan biri kelib qolib, Afandini koyiy boshladi:

— *Nega sovuq nafas qilib halitdan yig‘laysiz? Xudo xohlasa, tuzalib qoladi.*

— *Men ishi ko‘p odamman. O‘lib qolsa, yig‘lashga **qo‘lim tegmay qolishi** mumkin.*

Shuning uchun yig‘lab olay deyapman, — deb javob berdi Afandi.[8]

Mazkur latifada ulgurmaslik ma‘nosiga teng keluvchi qo‘li tegmay qolmoq iborasi xotinga nisbatan qo‘llanilganligi natijasida Afandining xotiniga nisbatan munosabatini anglash mumkin. Aynan shu jumlani ishlatish bilan latifa matnida kulgili holatning yuzaga kelganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

XULOSA

Latifalar uzoq zamonlardan beri xalq orasida aytilaverib maqollarga o‘xshab qo‘yma holga kelgan, bir eshitgan kishining hech qachon esidan chiqmaydigan badiiy yuksak asar bo‘lib, janr mohiyatan lofga yaqin turdir. Afandi obrazi bilan bog‘liq latifalarda esa afandining nihoyatda soddaligi, aniqroq aytsak, namoyishkorona no‘noqligini namoyish qilish bilan

holatlar berilgan namunalarni uchratish orqali biz Afandining soddaligidan, hayotdagi ko‘ngilsiz voqealarni o‘ziga olmasligidan zavqlanamiz. Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, latifalarda paremik birliklar qo‘llanilishining mazmunidan kuzatiladigan maqsad, bir tarafdin, yengil kulgu qo‘zg‘ash orqali tinglovchining kayfiyatini ko‘tarish bo‘lsa, ikkinchi tarafdin, odamlarni aqlliroy bo‘lishga undash hamdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Суванкулов Б. Ўзбек халқ латифаларининг жанр хусусиятлари ва бадиияти. Филол. фанлари номзоди... дисс. – Тошкент, 2007. 30-бет.
2. Брагинский И.С. Из истории таджикской народной поэзии. –М.: АН СССР, 1956. – С. 213-214.
3. <https://www.kommersant.ru/doc/4684074>
4. <https://uz.wikipedia>.
5. Дусматов Х. Аския матнининг лингвостилистик тадқиқи: Филол. фан. фал. док. (PhD)... дисс. – Фарғона, 2018. –Б. 135.
6. Я.Мадалиев. Туркий халқлар оғзаки ижодида латифа жанри: типологияси, мотивлари, таснифи (ўзбек ва қозоқ латифалари мисолида) Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати Тошкент – 2021.79- бет.
7. Yusupjanov E. Lingvistik presuppozitsiya pragmatik muammo sifatida yuzaga kelishi va o‘rganilishi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 1 | Issue 9 October 2021, 261-b.
8. www.ziyo.uz.com kutubxonasi.